

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

U.M.Maniyozov	
Inson-jamiat-innoiya dialektikasining ijtimoiy-falsafiy tahlili	206
Sh.Nazarova	
The portrayal of modern women in Bahmanyor's <i>Shahanshah</i> : a comparative analysis of urban and rural femininity in tajik literature	212
F.X.Utayeva	
Buxoroda tashkil etilgan yengil sanoat tarmoqlarining tarixi	215
J.Xusanov	
Kitobxonlikni yoshlar ma'naviyatga ta'siri	220
O.M.Karimov	
Mehnat erkinligi va inson qadr-qimmati tushunchalarining aksiologik tahlili	224
R.J.Soxibov	
Yoshlarda texnikaviy-estetik madaniyatni yuksaltirishning metodologik aspektlari	228
X.S.Qosimov	
Yoshlarda texnoetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	231
Sh.O'.Maxmudov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning estetik madaniyatini oshirishda musiqa ta'limi omilining ijtimoiy-falsafiy masalalari	234
M.A.Nuruddinov	
Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy zaruriyati	237



UO'K: 316.7:330.341:1

INSON-JAMIYAT-INNOVATSIYA DIALEKTIKASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ДИАЛЕКТИКИ ЧЕЛОВЕК-ОБЩЕСТВО-ИННОВАЦИЯ

SOCIAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE MAN-SOCIETY-INNOVATION DIALECTICS

Maniyofov Umidjon Murodjonovich



mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada inson va jamiyat hayotida innovatsiyaning qo'llanilishi, innovatsiyaning jamiyatdagi turli sohalari (ta'lim, madaniyat, qadriyat, tibbiyot, iqtisodiyot) dagi o'rni, innovatsiyalarni qo'llash bevosita inson omiliga bog'liq ekanligi, uning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье анализируется применение инноваций в жизни человека и общества, роль инноваций в различных сферах общества (образование, культура, ценности, медицина, экономика), зависимость применения инноваций от человеческого фактора, а также социально-философские аспекты этого явления.

Abstract

This article analyzes the application of innovation in human and societal life, the role of innovation in various spheres of society (education, culture, values, medicine, economics), the direct dependence of implementing innovations on the human factor, and its socio-philosophical aspects.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, innovatika, innovatsion rivojlanish, innovatsion jarayon, postfigurativ madaniyat, kofigurativ madaniyat, prefigurativ madaniyat.

Ключевые слова: Инновация, инноватика, инновационное развитие, инновационный процесс, постфигуративная культура, кофигуративная культура, префигуративная культура.

Key words: Innovation, innovatics, innovative development, innovative process, postfigurative culture, cofigurative culture, prefigurative culture.

KIRISH

Falsafada innovatsiyani o'rganishning yangi imkoniyatlari, avvalo, ushbu tushunchaning ma'nosini farqlash hamda ularni falsafiy antropologiya nuqtai nazaridan tushunish bilan bog'liq. Innovatsiyaning asosiy xususiyatlarini aniqlash lozim, chunki ular orqali uning nafaqat inson hayotining iqtisodiy, siyosiy, ta'lim va texnik sohalarini rivojlantirishdagi, balki subyekt (shaxs yoki jamoa) hayotidagi rolini aniqlash mumkin. Falsafa, madaniyatshunoslik va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda "innovatsiya" atamasi hali o'zining aniq ta'rifini topmagan, bu ta'rif tegishli hodisaning mohiyatini to'liq aks ettirishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda innovatsiya hodisasini o'rganish XX asrning birinchi yarmida boshlangan. Dastlab, innovatsiyalar mohiyati G.Tard, N.D.Kondratev va I.Shumpeter asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy fanlar doirasida o'rganilgan. Xususan, G.Tard yangiliklarning ijtimoiy taraqqiyotga ta'sirini aniqlagan, N.D.Kondratev esa ilg'or texnologiyalarning paydo bo'lishi va iqtisodiy yuksalishlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish asosida iqtisodiy sikllarning to'lqinsimon nazariyasini ilgari surgan. I.Shumpeter esa, o'tmishdoshlarining g'oyalari asoslanib, "innovatsiya" tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan, innovatsiyani fundamental ilmiy tadqiqotdan boshlab to iste'mol sohasida amaliy joriy etishgacha bo'lgan murakkab jarayon sifatida o'rganishni rag'batlantirgan va ushbu mavzu bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarning rivojlanish yo'nalishini belgilab bergan. U innovatsiyani iste'mol tovarlarining yangi turlarini, yangi ishlab chiqarish va transport vositalarini, bozorlarni va sanoatni tashkil etish shakllarini joriy etish va ulardan foydalanish

maqsadidagi o'zgarishlar sifatida tushungan. Innovatsiya uzoq vaqt davomida faqat iqtisodiy fanlar doirasida o'rganilgan. Keyinchalik, innovatsiyalarni o'rganish innovatsion menejment, boshqaruv sotsiologiyasi va XX asr oxirida paydo bo'lgan innovatika fanida rivojlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Menejmentda innovatsiya "amaliy faoliyatda qo'llaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, texnologik jarayon yoki ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuvni o'z ichiga olgan innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi" sifatida tushuniladi. Menejment nazariyotchilari, shuningdek, innovatsiyalar jamiyat rivojlanishining asosiy qonunlarini amalga oshirishning ajralmas elementi, uning barqarorligi, dinamikligi, shaxsning yashab qolishi va rivojlanishi sharti ekanligi haqida falsafiy xulosalar ham chiqaradilar. Ta'kidlanishicha, innovatsiya insonning ijodkorlik qobiliyatiga va jamiyatning ushbu ijod natijalarini qabul qilish yoki moslashtirish imkoniyatiga bog'liq. Xorijda innovatsion menejment bo'yicha eng e'tiborli ishlardan biri amerikalik sotsiolog va iqtisodchi P.F.Drakerga tegishli. U innovatsiyani texnik atamadan ko'ra ko'proq sotsiologik atama ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, innovatsiya - bu resurslar va rivojlanish manbalarini o'zgartirishdir. Umuman olganda, xorijiy adabiyotlarda innovatsiya ko'pincha faqat iqtisodiy yoki texnik hodisa sifatida tilga olinadi. Innovatsiyani falsafa yoki madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ko'rib chiqadigan tadqiqotlarni topish juda qiyin. Buni xorijiy falsafiy lug'atlarda novatsiya va innovatsiya atamalarining yo'qligi ham tasdiqlaydi. Innovatikada innovatsiya tushunchasi "intelektual faoliyatning (ilmiy-texnik tadqiqotlar, kashfiyotlar va ixtirolar, ilmiy g'oyalar) yakuniy natijasi bo'lib, u yangi obyekt (tizimlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovarlar, xizmatlar va boshqalar) yoki oldingi analogdan sifat jihatidan farq qiladigan obyekt ko'rinishida namoyon bo'ladi". Bunda innovatsiya ko'pincha yangilik kiritish bilan tenglashtiriladi. Sotsiologiyada innovatsiya mohiyatiga jarayon sifatida yondashishni uchratish mumkin. Masalan, venger sotsiologi B.Santo innovatsiyani "g'oyalar va ixtirolardan amaliy foydalanish orqali o'z xususiyatlariga ko'ra eng yaxshi mahsulotlar va texnologiyalarni yaratishga olib keladigan ijtimoiy-texnik-iqtisodiy jarayon"-deb ta'riflagan. Tadqiqotchi har qanday tushunchaning mohiyati va kelib chiqishini o'rganishda, odatda, etimologik lug'atlarga murojaat qiladi. Ammo bu holatda hatto zamonaviy rus tilining tarixiy-etimologik lug'atida ham novatsiya va innovatsiya tushunchalari mavjud emas. Bu so'zlarning so'zma-so'z tarjimasini aniqlash, shuningdek, biror narsaning chegarasi yoki ichiga kirish yoki kiritishni, biror muhitga kirib borishni ko'rsatuvchi "in" old qo'shimchasining eng aniq ma'nosini olish uchun faqat inglizcha-ruscha lug'atlarga murojaat qilish mumkin. Rossiya federatsiyasida bugungi kunda "Innovatsiyalar" nomli ilmiy-amaliy jurnali chop etilmoqda. Uning sahifalarida to'qsoninchi yillarning o'rtalaridan boshlab innovatsiya hodisasi turli sohalarining yetakchi mutaxassisarlari: iqtisodchilar, sotsiologlar, faylasuflar, filologlar tomonidan tahlil qilingan. Bu yerda ko'plab maqolalar mualliflari "novatsiya" va "innovatsiya" tushunchalarining asossiz ravishda tenglashtirilganini ta'kidlab, ushbu atamalarining kelib chiqishini aniqlashga urinishgan. Bunday imkoniyatlardan biri inglizcha atamalar va "in" old qo'shimchasining ma'nosiga murojaat qilish bilan bog'liq. Innovatsiya, yangilik, yangilanish deb tarjima qilinadigan va "innovate" (yangilik kiritmoq, o'zgarishlar qilmoq) fe'lidan kelib chiqqan inglizcha "innovation" otining ma'nosi uning tarkibiy qismlaridan iborat.

Shundan kelib chiqib, "novation"ni novatsiya, yangilik deb, "innovation"ni esa innovatsiya, yangilanish deb tarjima qilish maqsadga muvofiq. Bunda bu atamalar ot so'z turkumiga kiradi. Bunday holda innovatsiya yangi, yaqinda qo'llanila boshlagan narsa sifatida talqin qilinadi. Bu yangi yaratilgan mahsulot bo'lib, masalan, o'z ishlab chiqarishida foydalaniladi. Yoki boshqalar tomonidan yaratilgan, bozordan tovar sifatida xarid qilingan va ishlatila boshlagan yangi mahsulotdir. Demak, innovatsiya - bu kimdir tomonidan yaratilgan, innovatsion jarayon natijasida o'zgartirilgan yangilikdir.

Innovatsiya biron-bir ishlab chiqarishda o'zlashtirila boshlanadi yoki kimdir tomonidan qo'llaniladi. Innovatsiya nafaqat moddiy ko'rinishdagi yangilikni yaratish va o'zlashtirishning yakuniy natijasi bo'lishi mumkin: moddiy mahsulot turlari, balki nomoddiy: ishlab chiqarish va muomala sohasi omillarining yangi ilmiy-tashkiliy kombinatsiyasi, yangi texnologiyalardan samarali foydalanish va hokazo, ya'ni intellektual faoliyatning har qanday natijalaridan foydalanish. Iqtisodchilarga, shuningdek, "in" old qo'shimchasi, birinchi navbatda, innovatsiyaga mablag' sarflashni talab qiladi, degan fikr ham yaqin. Darhaqiqat, tibbiyot, fan va texnika, ta'lim va iqtisodiyot, siyosat va madaniyat sohalaridagi innovatsiyalarning aksariyati innovatsiyaga aylanishi uchun sarmoya kiritishni talab qiladi. Biroq, agar shaxsiy novatorlik va innovatsion faollikni ko'rib chiqadigan bo'lsak, unda ko'proq o'z kuch va g'ayratini "sarflash", ijodiy salohiyatni faollashtirish, o'z "Men"ini potensial holatdan

haqiqiy mavjudlikka o'tkazish talab etiladi. Lotin tilida "in" old qo'shimchasi yangilanish, biror jarayonning qayta boshlanishi, biror narsaga nisbatan yo'nalish yoki harakat ma'nolarini anglatadi. Bunday holda, innovatsiyani yangilikning paydo bo'lishi va uning jamiyatda joriy etilishi, faoliyat yuritishi tomon harakatini o'z ichiga olgan jarayon sifatida tushuntirish mumkin. "Innovatio" so'zi lotin tilida ot sifatida yangilanish, sezilarli o'zgarish, yangilanish, eski narsani yangisi bilan almashtirish ma'nolarini ham anglatadi. Bunday ma'nolar bizga innovatsiyani nafaqat tubdan o'zgartirish, balki ratsionalizatorlik faoliyati (yangilanish), allaqachon ma'lum bo'lgan jarayonlarni takomillashtirish sifatida tushuntirish imkonini beradi.

YUNESKONing Moskvadagi vakili V.Reyter innovatsiya va fanning o'zaro ta'sirini o'rganadi. U innovatsiya atamasiga ta'rif bermaydi, lekin "innovatsiya hozirgi va kelajak avlodlarning moddiy va ma'naviy farovonligini ta'minlash uchun barqaror rivojlanish manfaatlari yo'lida iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishga intilayotgan jamiyat uchun boshlang'ich salohiyatdir" - deb ta'kidlaydi. Falsafiy va madaniy lug'atlar hamda ensiklopediyalardagi maqolalarga murojaat qilib, shuni aniqlash mumkinki, innovatsiya ko'pincha yangilikni yaratish, tarqatish va undan foydalanish jarayoni sifatida tushuniladi. Innovatsiya ko'pincha yangilikka tenglashtiriladi. Masalan, V.L.Abushenko innovatsiyani (va yangilikni) "odamlarning ehtiyojlari va manfaatlarini yangi vositalar bilan qondirishga yo'naltirilgan, tizim (yoki yangilik amalga oshirilayotgan soha) holatlarining ma'lum sifat o'zgarishlariga olib keladigan va uning samaradorligini oshirish, barqarorligi va hayotiylikni mustahkamlashga yordam beradigan yangilikni yaratish, tarqatish va foydalanishning murakkab, tugallangan, maqsadli jarayoni" deb ta'riflaydi. Innovatsion faoliyat orqali amalga oshiriladigan yangiliklarning o'zi esa ijtimoiy rivojlanish shakli bo'lib, ijtimoiy tartibga solishning ajralmas elementi hisoblanadi. Yangiliklar paydo bo'lishining obyektiv asosi jamiyat rivojlanishining ma'lum tarixiy bosqichi va muayyan ijtimoiy vaziyatlarga xos qonuniy tendensiyalar va jarayonlardir. Ularning ta'siri ostida insonlar hayotining turli sohalarida faoliyatning eski vosita va usullari bilan qondirish mumkin bo'lmagan ehtiyoj va manfaatlar shakllanadi. L.Y.Kosals "Innovatsion jarayonlarning ijtimoiy mexanizmi" monografiyasida innovatsiya va yangilik atamalarini ma'no jihatidan tenglashtiradi, ularni avvalo jarayon sifatida ko'rib chiqadi, ammo shu bilan birga bu "ushbu yangilik bilan bog'liq o'zgarishlar, uning hayot sikli sodir bo'ladigan ijtimoiy va moddiy sohadagi jarayon" ekanligini ta'kidlaydi. Ko'pincha innovatsiya ilgari mavjud bo'lmagan yangi narsa sifatida tushuniladi. Masalan, falsafa, sotsiologiya, din, ezoterizm va siyosiy iqtisod bo'yicha katta ensiklopedik lug'atda innovatsiyalar "madaniyatning oldingi rivojlanish bosqichlarida bo'lmagan, ammo hozirgi bosqichda paydo bo'lib, e'tirof etilgan ("ijtimoiylashgan") hodisalar"-deb ta'riflanadi. Innovatsiya bir vaqtning o'zida madaniyatning ijodkorlik (o'zgarishlar, yangilanishlar, ijod) va tuzilmaviy (tartibga solish, me'yoriylik, an'anaviylik) vektori ekanligi ta'kidlanadi. Yangilik kiritish tushunchasi alohida ajratib ko'rsatiladi va u yuqorida ko'rib chiqilgan ma'nodagi innovatsiya (yangilikni yaratish, tarqatish va foydalanish jarayoni) sifatida talqin qilinadi. A.I.Kravchenko "madaniyatdagi innovatsiya" atamasini taklif qilib, uni "ilgari uning doirasida bo'lmagan obyekt yoki xususiyatning yangidan shakllanishi, paydo bo'lishi va tarqalishi" - deb izohlaydi. Bunda innovatsiya madaniyat ichidagi kashfiyot yoki madaniyatlararo o'zlashtirish (diffuziya) natijasi bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Innovatsiyaning muhim belgilari an'ana va yangilikni qarama-qarshi qo'yish orqali ham aniqlanishi mumkin. Masalan, A.S.Panarin ta'kidlashicha, "innovatsiyalar - bu ratsional tashkil etilgan faoliyatning an'anaviy, qadimiy va hunarmandchilik shakllarini siqib chiqarish umumiy tendensiyasi doirasida tushuniladigan yangiliklardir". Bunday tushunishda innovatsiyalar an'anaviy taqiqlarni buzishni nazarda tutadi va shaxsning dunyoni tabiat yoki oliy aql yaratganidan ko'ra yaxshiroq tashkil etishga bo'lgan jasoratini aks ettiradi. V.I.Bakshtanovskiy va A.Y.Sogomonov "Innovatsiya va an'ana nizosi: dilemmalar, qadriyat mulohazalari, tanlov" monografiyalarida novatsiya va innovatsiya tushunchalariga ta'rif bermaydilar. Biroq ular "an'ana yoki innovatsiya foydasiga tanlovning har bir aniq vaziyatida go'yo aksiologik tanlov amalga oshiriladi, ya'ni targ'ib qilinayotgan va o'rnatilayotgan hayotiy qadriyatlar va yo'nalishlar foydasiga yashirin tanlov" -deb ta'kidlaydilar. Shu nuqtai nazardan, yangi yoki eski narsa o'z-o'zidan qadrlil yoki maqbul bo'lib qoladi, bu insonga yoki biz munosabatda bo'layotgan avlodga bog'liq.

Avlodlar o'rtasidagi, shuningdek, eskilik va yangilik o'rtasidagi bunday qadriyatli munosabatlarni M.Mid o'rgangan. U madaniy antropologiyada o'ziga xos novator sifatida insoniyat madaniyatini tushunishga ulkan hissa qo'shdi va avlodlar o'rtasidagi munosabatlarni o'z tadqiqoti predmetiga aylantirdi. M.Mid madaniyatning uch turini ajratib ko'rsatdi: postfigurativ, kofigurativ va prefigurativ. Postfigurativ madaniyatda munosabatlar avlodlar tajribasining davomiyligi asosida

ILMIY AXBOROT

quriladi; har bir o'zgarish shunchalik sekin va sezilarsiz sodir bo'ladiki, bobolar yangi tug'ilgan nabiralari qo'llarida ushlab, ular uchun o'zlarining o'tmishlaridan farqli kelajakni tasavvur qila olmaydilar. Bunday jamiyatda innovatsiyalar qadriyat sifatida tan olinmaydi va jamiyatga eng katta qarshilik bilan kirib keladi. Kofigurativ madaniyatda zamondoshlar tomonidan belgilangan xulq-atvor modellari ustunlik qiladi, innovatsion xulq-atvor qadriyat sifatida anglanmaydi, ammo qoralanmaydi ham. Prefigurativ madaniyatda ota-onalar farzandlaridan o'rganishlari kerak bo'ladi. Bunday madaniyatlar, M.Midning fikricha, XX asrning o'rtalarida elektron kommunikatsiya tarmog'ining tarqalishi natijasida paydo bo'lgan. Bunday madaniyatda katta avlodning an'anaviy qadriyatlari kichik avloddan ustun bo'lmaydi. Bilimlarning yangilanish sur'ati shu qadar yuqoriki, yoshlar keksalarga qaraganda ko'proq bilimga ega bo'lib qoladi.

Ammo shu bilan birga, avlodlar o'rtasidagi, ya'ni an'analar va innovatsiyalar o'rtasidagi ziddiyatlar ham keskinlashmoqda. Prefigurativ madaniyatlar esa kelajakka va tezlashgan innovatsion harakatga yo'naltirilgan. Vengriyalik sotsiolog B.Santo hozirgi vaqtda innovatsion tezlashuv ham strategik, ham global jihatdan muhim ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlaydi. Globalizm shunda namoyon bo'ladiki, innovatsiya imperativida istisno yo'q; bu rivojlangan mamlakatlarning imtiyozlari emas. (Rivojlanayotgan mamlakatlarga innovatsion chaqiriq yanada ko'proq taalluqli: milliy raqobatbardosh texnologik ustunliklarni yaratish va saqlab qolish, ularni global bozor iqtisodiyotida ro'yobga chiqarish - har qanday mamlakat korxonalari va hukumatlari rahbarlari uchun mavjud imkoniyat va vazifadir). Biroq bu faqat innovatsion poygada shaxsning tanqidiy, himoyalangan holatini tushunish sharti bilangina mumkin. Innovatsiyani qadriyat sifatida, o'zini esa global dunyoning bir qismi sifatida anglab, inson prefigurativ madaniyatlarda ishonchli rivojlanish yo'nalishiga ega bo'lishi mumkin. Innovatsiya zamonaviy jamiyatda shaxsning o'zini o'zi anglash vositasi bo'lganligi sababli ham qadriyat sifatida tushunilishi mumkin.

"Madaniyat qadriyatlari va jamiyat taraqqiyoti" monografiyasi mualliflari N.M.Lebedeva va A.N.Tatarko shaxsning o'zini o'zi anglash imkoniyatini asosiy qadriyatlardan biri sifatida ko'radi. Shu bilan birga, o'z "Men"ni ro'yobga chiqarish imkoniyati shaxsning iste'dodi va mustaqilligi, kasbiy mahorati va mas'uliyatining rivojlanishiga, shaxsning innovatsion salohiyatining oshishiga olib kelishi ta'kidlanadi. Eng muhimi, bularning barchasi bag'rikenglikka va yangilikni kamroq ziddiyatli qabul qilishga olib keladi. Innovatsiya va o'z-o'zini anglash jarayonlari o'rtasidagi bog'liqlik haqida gapirar ekan, B.Santo innovatsiya nafaqat jamiyat rivojlanishining boshlang'ich salohiyati, balki shaxsning samarali o'z-o'zini anglash sharti ekanligini ta'kidlaydi. "Ma'lum bo'lishicha, gomeostaz va o'z-o'zini saqlashning ifodasi sifatida kundalik faoliyatni o'z-o'zini rivojlantirish manfaatlari yo'lida gomeostazning buzilishi sifatida ijodiy faoliyatdan aniq farqlash zarur". Zero, har qanday innovatsiya narsalarni boshqacha ko'ra olish, muammoni aniqlash va vazifa qo'ya olish, shuningdek, bu vazifani hal qila olish qobiliyatini anglatadi. Inson va uning jamiyati o'z-o'zini rivojlantirishining mohiyati aynan ana shu qobiliyatni innovatsiyalar orqali yuksaltirishdadir. Shunday qilib, agar biz innovatsiyani shaxsning o'zini o'zi anglashining boshlanishi sifatida tushunsak, innovatsiya - bu o'zini o'zi anglash vositasi bo'lib, u oxir-oqibat biz yashaydigan jamiyatni rivojlantirish imkoniyati haqida gapirishga yo'l ochadi. Shuningdek, "innovatsiya - bu ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar uchun zamin yaratadigan yangi texnologiyalar va yangi modellarni shakllantirish mexanizmidir" degan nuqtai nazar ham mavjud. Bu yerda innovatsiya insonning ijodkorlik qobiliyatiga va jamoaning ushbu ijodkorlik natijalarini qabul qilish yoki moslashtirish imkoniyatiga bog'liqligi ta'kidlanadi. Eng muhimi, innovatsiya kelajakda jamiyatni o'zgartirishni nazarda tutadi. Bunda ham konstruktiv, ham destruktiv innovatsiyalarni amalga oshirish mumkin. Faqat vaqt u yoki bu innovatsiya qanday samara berishini ko'rsatadi. Shuning uchun ham inertlik, yangilikka qarshilik ko'rsatish insonga juda xosdir. Bu, o'ziga xos tarzda, ehtimoliy buzg'unchi ta'sirdan himoyalanişdir.

Innovatsiyaning mohiyatini ochib berishda uning mavjudligining asosiy shartlaridan biri shaxsning ijtimoiy-madaniy muhit o'zgarishlariga moslashish imkoniyati ekanligini hisobga olish kerak. Innovatsiya madaniyat sotsiologiyasida qo'llaniladigan atama sifatida tilga olinishi mumkin. Bu bilim sohasiga uni R.Merton kiritgan. Uning tushunchasiga ko'ra, innovatsiya - bu individual moslashuvning bir turi, individning anomiyaga munosabati bo'lib, bunda individ madaniyat maqsadlarini qabul qiladi, ammo ularga erishishning institutsional vositalarini rad etadi. "Moslashuvning bu shakli muvaffaqiyat maqsadiga katta madaniy urg'u berish bilan bog'liq bo'lib, institutsional jihatdan taqiqlangan, ammo ko'pincha boylik va hokimiyatga erishishning samarali vositalaridan yoki hech bo'lmaganda ularga o'xshash vositalardan foydalanishdan iborat". Shu bilan

birga, B.I.Kononenko innovatsiyani moslashuvga butunlay qarama-qarshi qo'yadi. Bu "har doim shaxsiy, chuqur shaxsiy, ekzistensial vazifa yoki muammoni faqat individual hal qilish natijasi bo'lgan harakat (yangi vaziyatlarga moslashish, shakllangan xulq-atvor modellari yoki qarorlarni moslashtirish emas), an'ana yoki qonun, siyosiy maqsad yoki texnologik yechim shunchaki yangicha talqin qilinmaydi, balki barcha resurslar va madaniy imkoniyatlar safarbar etiladi". Shunday qilib, innovatsiya, birinchi navbatda, harakatdir: "yangi g'oyalarni ishlab chiqish, sintez qilish, harakatning yangi modellarini, qadriyatlarini, sof individual va takrorlanmas xususiyatga ega bo'lgan siyosiy dasturlarni yaratish". Ushbu ta'riflarda innovatsiyaning shaxsiy muammoni individual hal qilish bilan bog'liq xususiyatlari dolzarblashadi. Bu esa innovatsiya mohiyati va mazmunini talqin etishda falsafiy-antropologik yondashuvni belgilaydi. Sivilizatsiya jarayonida innovatsiyalar va an'analar nisbatini o'rganib, O.A.Sergeyeva innovatsiyani "dastlab individual-shaxsiy darajada amalga oshiriladigan, keyinchalik esa jamiyat tomonidan ma'lum darajada qabul qilinadigan har qanday kashfiyot" deb ta'riflaydi. Bizningcha, ushbu ta'rifning birinchi qismi: "individual-shaxsiy darajada amalga oshiriladigan har qanday kashfiyot" ko'proq yangilikka mos keladi. Ikkinchi qism esa kashfiyotning jamiyat tomonidan qabul qilinishiga taalluqli bo'lib, innovatsiyaning mohiyatini ochib beradi. Yangilik umumiy boylikka aylanishidan oldin dastlab shaxsiy darajada paydo bo'lishi va shakllanishi lozim.

O.A.Sergeyeva ta'kidlashicha, innovatsiyalar uchun eng qulay davr sivilizatsion tizimning beqarorlik holati bo'lib, bu paytda sivilizatsion innovatsiyalar sabab-oqibat aloqalari zanjirining bir bo'g'iniga aylanadi. Aynan muhitning beqarorligi orqali individual ijodkorlik darajasi ijtimoiy hamjamiyat darajasi va uning yangiliklarni qabul qilishga tayyorligi bilan bog'lanadi. Innovatsiya shaxsning ijtimoiy-madaniy muhit o'zgarishlariga moslashish sharti va zamonaviy dunyoning global o'zgarishlarida ishtirok etish hamda omon qolish imkoniyati sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, innovatsiya moslashuv mexanizmlariga (mavjud xulq-atvor modellari yoki qarorlarni yangi vaziyatlarga moslashtirish) ham qarama-qarshi qo'yilishi mumkin. Chunki innovatsion jarayon, avvalo, harakatdir: yangi g'oyalarni ishlab chiqish, sintez qilish, yangi harakat modellarini va qadriyatlarini yaratishdir. Innovatsiya shaxsning o'zini namoyon qilish va o'zligini anglash vositasi sifatida ham belgilanishi mumkin. Inson faoliyatining ko'p sohalarida innovatsiyani amalda qo'llash uchun uni hujjatlashtirish talab etiladi. Shuningdek, innovatsiyadan ko'pincha ma'lum iqtisodiy samara - jamiyat farovonligini oshirish kutiladi.

XULOSA

Umuman olganda, biz innovatsiyani jamiyat tomonidan qabul qilinish, tarqalish va foydalanishning ma'lum darajasiga erishadigan, shaxsiy va jamoaviy darajadagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar uchun shart-sharoit yaratadigan yangilik sifatida tushunamiz. Innovatsiyaning mohiyatini yangiliklarni amalda qo'llash va ulardan foydalana oladigan innovator shaxsiga murojaat qilish orqali ham ochib berish mumkin. Bunda innovator ham boshqa novatorlar g'oyalarini takomillashtiruvchi va jamiyat hayotiga tub o'zgarishlar kiritmaydigan, ham tarix yo'nalishini butunlay o'zgartira oladigan buyuk shaxs bo'lishi mumkin. Falsafiy antropologiya uchun alohida shaxsning hayotiy dunyosini o'zgartirishi mumkin bo'lgan kichik innovatsiyalar ham qiziqarlidir. Chunki aynan shunday innovatsiyalar alohida shaxsning "Men"ini muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarish vositasi bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Большой энциклопедический словарь: философия, социология, религия, эзотеризм, политэкономия / Сост. С. Ю. Солодовников. - Минск: МФЦП, 2002. -С.311.
2. Всемирная энциклопедия : Философия / под ред. А. А. Грицанова. - М.: АСТ, 2001. -С.705.
Влияние инноваций на социальную динамику общества : сб. ст. / С.-Петерб. гос. ун-т и др.; под ред. Р. А. Зобова. - СПб.: Изд-во С- Петерб. гос. ун-та, 2000. -С.61.
3. Drucker, P. F. Innovation and entrepreneurship / Peter F. Drucker. - New York: Harper Business, 1997. -P.33.
4. Кравченко, А. И. Культурология : словарь / А. И. Кравченко. - М.: Академии. Проект, 2000. -С.195.
5. Колосов, Н. О. Османов. — СПб.: Политехника, 2000. -С.6.
6. Иноземцев, В. Л. Экспансия творчества - вызов экономической эпохе / В. Л. Иноземцев // Полис. - 1997. - № 5. - С. 78.
7. Кононенко, Б. И. Большой толковый словарь по культурологии / Б. И. Кононенко. - М.: ООО «Издательство АСТ», 2003. -С.158.
8. Келле, В. Ж. Инновационная система России: формирование и функционирование / В. Ж. Келле. - М.: Эдиториал УРСС, 2003. -С.47.
9. Морозов, Ю. П. Инновационный менеджмент / Ю. П. Морозов, А. И. Гаврилов, А. Г. Городнов. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003. - 471 с.
10. Мюллер, В. К. Англо-русский словарь: 53 000 слов / В. К. Мюллер.-М.: Рус. яз., 1990. -С. 504.

ILMIY AXBOROT

11. Новая философская энциклопедия: В 4 т. / Ин-т философии Рос. АН, Нац. обществ.-науч. фонд; Науч. ред. М. С. Ковалева и др. — М.: Мысль, 2000.-Т.2.-С.121.
12. Прищепенко, В. В. Принцип идеальности услуги как сущности инновации - парадигма развития предприятия и отрасли [Электронный ресурс] / Прищепенко В. В., Прищепенко М. В. // Инновации. - 2005. — № 2.
13. Рейтер, В. Инновации и наука - обновление науки [Электронный ресурс] / В. Рейтер // Инновации. - 1999. - № 9-10.
14. Санто, Б. Сила инновационного саморазвития [Электронный ресурс] / Б. Санто // Инновации. - 2004. - № 2. -С.83. Режим доступа : <http://www.innov.etu.ru/>
15. Санто, Б. Сила инновационного саморазвития [Электронный ресурс] / Б. Санто // Инновации. - 2004. - № 2.
16. Сергеева, О. А. Соотношение новаций и традиций в цивилизационном процессе / О. А. Сергеева // Философия и общество. - 1999. - JN2 2.-С.191.
17. Философия : энцикл. словарь [Текст] / под ред. А. А. Ивина. - М.: Гардарики, 2006. - С.188.
18. Хоружепко, К. М. Культурология. Энциклопедии, словарь / К. М. Хоруженко. - Ростов н/Д.: Изд-во «Феникс», 1997. -С.173.
19. Черных, П. Я. Историко-этимологический словарь современного русского языка: В 2 т. - 4-е изд., стереотип. — М.: Русский язык, 2001. - Т. 1: А — Пантомима. - 624 с
20. Шумпетер, И. Теория экономического развития / И. Шумпетер. - М.: Прогресс, 1982. - 454 с.